TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 25-mart | 82-10-212-Q/25 | Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 14-martdagi “Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-fevraldagi 29-son rayosat bayoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida” 191-10-0-Q/25-son qarori ijrosi to‘g‘risida

Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 14-martdagi 191-10-0-Q/25-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 10-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 14-martdagi 191-10-0-Q/25-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 28-fevraldagi 29-sonli rayosat bayoni bilan ilova muvofiq 2025-yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi dasturiga qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash bo‘yicha kiritilgan loyihalarning (obyektlarning) buyurtmachilar kesimida manzilli ro‘yxati tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Buyurtmachilarga belgilangan tartibda:

Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasiga arxitektura rejalashtirish topshirig‘i ishlab chiqish uchun buyurtmalar berish hamda loyiha-smeta hujjatlari tayyorlash uchun litsenziyaga ega loyiha tashkiloti bilan shartnoma tuzish;

loyiha ishlarini amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan korxonalar bilan yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan 1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish;

qurilish ishlarini amalga oshirish uchun tegishli nazorat inspeksiyasidan ruxsatnoma olish;

mazkur hududda joylashgan muhandislik tarmoqlarini ko‘chirish yoki ularning muhofaza hududini saqlab qolish ishlari o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirish hamda qurilish-ta’mirlash ishlari yakunlangandan so‘ng foydalanishga topshirish vazifalari yuklatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

1-ilova

2025-yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi
ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi dasturiga qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash bo‘yicha kiritilgan loyihalarning (obyektlarning) buyurtmachilar kesimida
MANZILLI RO‘YXAT

№	Ob’ekt nomi	Buyurtmachi
1	Toshkent tumanida qurilayotgan uy- joylar uchun oqova suv tarmog‘ini qurish va rekonstruksiya qilish (2-bosqich)	“Suv ta’minoti va oqova suv obyektlari qurilishi bo‘yicha injiniring kompaniyasi” UK Toshkent shahar va Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi
2	Toshkent viloyati Toshkent tumanidagi 14-son maktabni ichimlik suvi bilan ta’minlash	“Suv ta’minoti va oqova suv obyektlari qurilishi bo‘yicha injiniring kompaniyasi” UK Toshkent shahar va Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi

Tuman hokimi **S.Ergashev**